



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(3)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 248 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi .....   | 10 |
| <i>Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi</i>   |    |
| Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv .....   | 13 |
| <i>Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</i>  |    |
| O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...   | 19 |
| <i>Mahmudova Shoira Shavkat qizi</i>   |    |
| O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....  | 25 |
| <i>Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</i>  |    |
| O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....  | 30 |
| <i>Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</i>   |    |
| Xurshid Do'st Muhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....  | 34 |
| <i>Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</i>  |    |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati .....  | 37 |
| <i>Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</i>   |    |
| "Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ..... | 41 |
| <i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>  |    |
| Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....                                 | 46 |
| <i>Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</i>  |    |
| Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari .....  | 50 |
| <i>N. Asadov</i>   |    |
| Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....   | 53 |
| <i>G. Xamidova</i>   |    |
| Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri .....  | 56 |
| <i>Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi</i>   |    |
| The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality .....   | 59 |
| <i>Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi</i>  |    |
| Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....                           | 64 |
| <i>Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li</i>   |    |
| Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....                         | 69 |
| <i>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</i>   |    |
| Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....   | 73 |
| <i>Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ithom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi</i>   |    |
| O'qishga motivatsiya tushunchasi uning nazariy-psixologik tahlili.....   | 77 |
| <i>Azimova Rushana Zokirjon qizi</i>   |    |
| Oliy ta'lim talabalarida akademik prokrastinatsiyaning prediktorlari: akademik motivatsiya, umid va shaxs xususiyatlari .....                                  | 81 |
| <i>Shodiboyev Shohruh Shuhrat o'g'li</i>   |    |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar integratsiyasini ta'minlash metodikasi.....  | 86 |
| <i>Qahhorova Sevara Alimardonovna</i>  |    |
| O'quvchi-yoshlarni virtual olam ta'siridan himoya qilishning nazariy asoslari.....   | 90 |
| <i>Isayeva Gulii Parpiyevna, Ravshanov Umidjon Abdiqodir o'g'li</i>  |    |



|  |     |
|--|-----|
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni oshirishda mantiqiy masalalarning o'rni .....  | 93  |
| <i>Xilvatova Go'zal Sultonovna</i>   |     |
| Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish .....   | 97  |
| <i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i>  |     |
| Bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirish usullari .....  | 101 |
| <i>Nurmatova Muxlisa Akmal qizi</i>  |     |
| Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish<br>(Kahoot, Quizlet va Moodle platformalari misolida) .....   | 106 |
| <i>Yusupova Shahnoza Abduxafizovna</i>   |     |
| Sport maktablarida 16–18 yoshli nayza uloqtiruvchi sportchi-qizlarda portlovchi kuchni rivojlantirish .....  | 111 |
| <i>Tursunova Surayyo Botir qizi</i>  |     |
| Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda<br>"Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili ..... | 115 |
| <i>Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich</i>  |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining faoliyatini samarali tashkil etishning<br>nazariy jihatlarini (Learning outcomes) asosida .....   | 124 |
| <i>Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi</i>   |     |
| Bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari .....   | 128 |
| <i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>  |     |
| Yengil atletikachilarning musobaqa jarayonida tibbiy-pedagogik monitoringini takomillashtirish .....   | 132 |
| <i>Mamadaliyev Abror Akbarjonovich</i>   |     |
| Sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish va uning samaradorligi .....  | 137 |
| <i>Yagafarova Nazilya Rafailovna, Nazarov Sardor, Onorboyev Kamronbek</i>  |     |
| O'quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi .....  | 142 |
| <i>Baymurotova Mukaddas Xamdorovna</i>   |     |
| Ilmiy muxokamalarda pragmatik kompetentlikning roli .....  | 150 |
| <i>Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna</i>   |     |
| Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini<br>takomillashtirishning mazmuni .....  | 155 |
| <i>To'rabekova Aziza Mirzabek qizi</i>   |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni .....  | 159 |
| <i>Qamchibekova Roziyaxon Xasanboy qizi</i>  |     |
| Проблема разграничения понятий "концепт" и "понятие" в современной лингвистике:<br>лингвосомиотический и когнитивно-дискурсивный анализ .....  | 164 |
| <i>Якунина Ангелина Алишеровна</i>   |     |
| Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amaliy bezak san'ati naqsh elementlarini<br>raqamli qayta ishlash va arxivlashtirish .....  | 169 |
| <i>Jabbarov Rustam Ravshanovich</i>  |     |
| Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda<br>Design Thinking texnologiyasining metodik imkoniyatlari .....   | 176 |
| <i>Amanbayeva Oydin Urazali qizi</i>   |     |
| Tez qalamchizgi mashqlarida psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati .....  | 181 |
| <i>Suyunov Navro'z Alisher o'g'li</i>  |     |
| Innovatsion yondashuv orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining<br>metodik tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi .....  | 186 |
| <i>Xalilov Lenar Shevketovich</i>  |     |
| Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari .....   | 190 |
| <i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>   |     |
| Samarqand arxitektura-qurilish instituti va shahar infratuzilmasi rivojlanishi<br>o'rtasidagi bog'liqlik (1950–1990-yillar) .....  | 195 |
| <i>Abulqosimova Dildora Asrorovna, O'ralov Sodiqjon</i>  |     |
| Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'limida ikkilamchi cheklovlarni kamaytiruvchi ta'lim texnologiyalari .....  | 199 |
| <i>Qo'ziyeva Shahnoza Muhammadsoli qizi</i>  |     |

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

|  |     |
|--|-----|
| O'quvchilarda milliy g'oya va mafkurani rivojlantirishda mumtoz musiqaning o'rni va ahamiyati .....  | 202 |
| <a href="#">Baymanova Feruza Abralovna</a>   |     |
| Ommaviy jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishning pedagogik asoslari .....  | 207 |
| <a href="#">Xayitova Ulfatoy Tursunovna</a>  |     |
| Yuqori sinf o'quvchilarida ijtimoiy faollikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari .....  | 211 |
| <a href="#">Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich</a>   |     |
| Muhandislik ta'limida Bernulli va Puasson taqsimotlarini texnologik jarayonlar misolida o'qitish metodikasi  | 216 |
| <a href="#">Qo'ziboyeva Nozima Yoqubjon qizi, Maxmanazarov Sardor Toirjon o'g'li, Saydullayev Asadbek Xayrullo o'g'li</a>  |     |
| Психолого-педагогические основы обучения теме “производная” в курсе алгебры<br>и начал анализа президентской школы .....   | 225 |
| <a href="#">Шахноза Холмуродова Зоир кизи</a>  |     |
| O'qish savodxonligi darslarida Bloom taksonomiyasi va 4K kompetensiyalarining integrativ modeli .....  | 234 |
| <a href="#">Farsaxonova Mastura Jalol qizi</a>   |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini baholash mezonlari va<br>monitoring tizimini takomillashtirish: indikatorlar asosidagi boshqaruv modeli ..... | 241 |
| <a href="#">Jo'rayeva Dilrabo Kamoliddin qizi</a>  |     |
| Maxsus mashqlar yordamida start tezligini oshirish metodikasi .....  | 244 |
| <a href="#">Sitara Elova Axmatqulovna, Panjiyeva Gulzoda Eshdaviyat qizi</a>   |     |

# TARBIYA FANI ASOSIDA O'QUVCHILARDA HUQUQIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Jumanova Xafiza Xoliqulovna

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** “Tarbiya” fani asosida o’quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. O’quvchilarda o’z xulq-atvoriga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish, jamiyat tomonidan qabul qilingan odob-axloq me’yorlariga rioya qilish, o’z huquq va majburiyatlarini anglash, inson huquqlari to’g’risidagi bilimlarni egallash hamda ularni amaliyotda to’g’ri qo’llash huquqiy ongni rivojlantirishning muhim omillari sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, huquqiy kompetentlikni rivojlantirishda tarbiyaviy yondashuvlarning ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so’zlar:** Konstitutsiya, odob-axloq, inson huquqlari, huquq va majburiyatlar, huquqiy kompetentlik, bilim, ko’nikma, malaka, qobiliyat.

**Abstract:** Pedagogical opportunities for developing students’ legal competence through the subject “Education” are highlighted. Particular attention is paid to fostering a responsible attitude toward personal behavior, adherence to moral and ethical norms accepted by society, awareness of rights and responsibilities, acquisition of knowledge about human rights, and the ability to apply this knowledge correctly in practice as key factors in the development of legal consciousness. The importance of educational approaches in enhancing legal competence is also emphasized.

**Key words:** Constitution, ethics, human rights, rights and responsibilities, legal competence, knowledge, skills, competencies, abilities.

**Аннотация:** Раскрываются педагогические возможности развития правовой компетентности учащихся на основе предмета “Воспитание”. Проанализированы вопросы формирования у учащихся ответственного отношения к собственному поведению, соблюдения морально-этических норм, принятых обществом, осознания своих прав и обязанностей, овладения знаниями о правах человека и их правильного применения на практике как важных факторов развития правового сознания. Также показано значение воспитательных подходов в развитии правовой компетентности.

**Ключевые слова:** Конституция, морально-этические нормы, права человека, права и обязанности, правовая компетентность, знания, навыки, умения, способности.

## KIRISH

Tarbiya – shaxsni har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan uzluksiz va maqsadli jarayon bo’lib, uning doirasida huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqiy kompetentlik shakllanib, rivojlanadi. Bu borada “Tarbiya” fani o’quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanib, axloq, madaniyat, jamiyat qoidalari, huquqiy me’yorlar, inson huquqlari va majburiyatlari haqidagi tushunchalar mazmunini tarkib toptirish orqali o’quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratib beradi. Bir so’z bilan aytganda, “huquqiy kompetentlik” atamasi “bilim, ko’nikma, qobiliyat”ning an’anaviy uchligini ifodalashi bilan bir qatorda, uning tarkibiy qismlarini birlashtirib, ta’lim va tarbiyada uzluksizlik vazifasini bajaradi. Ya’ni, “bilim – ko’nikma – qobiliyat” uchligi huquqiy kompetentlikning uzviy tarkibiy qismlari sifatida o’quvchilarning huquqiy faolligi va ongli ishtirokiga zamin yaratadi.

Bu uchlik faqat nazariya va amaliyot uyg’unligi emas, balki “Tarbiya” fani orqali o’quvchida huquqiy ong, mas’uliyat tuyg’usi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qilib, uni kelajakda jamiyatda faol, mas’ul va adolatparvar fuqaro sifatida tarbiyalashda muhim poydevor vazifasini o’taydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tarbiya fanini ta’limning barcha bosqichlarida, ayniqsa, umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’qitish zarurati tobora ortib bormoqda.

Tarbiya fani insonni har tomonlama rivojlangan, ma’naviy pok, jamiyatda o’z o’rnini topa oladigan shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, tarbiya fani orqali huquqiy kompetentlikni (ya’ni huquqiy bilim, ko’nikma va qobiliyatni) rivojlantirishga quyidagicha yondashish mumkin (1-jadvalga qarang).



1-jadval: Tarbiya fanida “bilim–ko’nikma–qobiliyat” asosida huquqiy kompetentlikni rivojlantirish

| Tarkibiy qism    | Tarbiya fanining vazifasi   | Huquqiy kompetensiyaga ta'siri   |
|------------------|---|--|
| <b>Bilim</b>     | O'quvchilarga huquqiy tushunchalarni (qonun, huquq, majburiyat) tarbiyaviy yo'l bilan yetkazish                   | – O'quvchining huquqiy xabardorligi ortadi;<br>– qonunga hurmat shakllanadi;<br>– ma'naviy ong mustahkamlanadi   |
| <b>Ko'nikma</b>  | Hayotiy misollar, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar orqali huquqiy vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutishni o'rgatish | – Amaliyotda huquqni to'g'ri qo'llash malakasi rivojlanadi;<br>– huquqbuzarlikka qarshi ongli munosabat shakllanadi  |
| <b>Qobiliyat</b> | Fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, o'z fikrini himoya qilish qobiliyatini tarbiyalash                              | – O'quvchi murakkab huquqiy vaziyatlarda mustaqil qaror chiqaradi;<br>– adolatparvarlik va fuqarolik javobgarligi shakllanadi;<br>– huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuksaladi |

**Bilim** – bu o'quvchilarga asosiy huquqiy tushunchalarni, ya'ni qonun, huquq va majburiyatlarni o'rgatish jarayonidir. Bu bilimlar o'quvchining huquqiy savodxonligini oshiradi va ularni huquqiy madaniyatga ega bo'lishga yo'naltiradi<sup>1</sup>.

**Ko'nikma** – bu insonning biror faoliyat turini ongli ravishda, tez, aniq va ishonchli bajarish qobiliyatidir. U takroriy mashqlar, amaliy tajriba va bilim asosida shakllanadi. Huquqiy ko'nikma – bu o'quvchining real hayotdagi huquqiy vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, qonunlarni amalda qo'llay olish qobiliyatidir<sup>2</sup>.

**Qobiliyat** – bu o'quvchining huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, asosli qaror qabul qilish va o'z huquqiy pozitsiyasini himoya qila olish salohiyatidir. U tarbiya jarayonida shakllanib, o'quvchining mustaqil fikrlashi, adolatga intilishi, fuqarolik javobgarligini anglashi hamda komil inson shaxsini shakllantirishga xizmat qiladi<sup>3</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot jarayonida ta'limni diversifikatsiyalash muammolari bo'yicha ilmiy adabiyotlar va internet ma'lumotlari tahlili asosida “ta'limni diversifikatsiya qilish” tushunchasining mazmuni hodisa, jarayon, tamoyil, tendensiya, yo'nalish, natija kabi turli toifalar yordamida aniqlanganligi o'rganildi<sup>4</sup> [117-b.].

Turli nuqtai nazarlarni umumlashtirib, Ye. L. Kudrina shunday xulosani keltirib o'tadi: “Ta'limni diversifikatsiya qilish zamonaviy ta'limni isloh qilish yo'nalishlaridan birini aks ettiruvchi sifat jihatdan yangi ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida shaxsning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlari, xarakteri va mazmunini o'zgartirishni ta'minlaydigan asosiy ta'lim dasturlari va o'quv fanlari, ta'lim shakllari va texnologiyalarini kengaytirish”<sup>5</sup> [128-b.].

Demak, tarbiya fani asosida o'quvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim jarayonini diversifikatsiya qilish o'quvchilarga ta'lim jarayonini moslashtirish va ularning ehtiyojlariga moslashtirilgan, keng qamrovli, innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan strategiyadir. Shu bilan birga, o'quvchilarning huquqlarini tushunishi va himoya qilishida ta'limning diversifikatsiyasi katta rol o'ynaydi.

T. S. Sumskaya ta'lim muassasalarida ta'limni diversifikatsiya qilishning quyidagi tamoyillarini belgilaydi:

- ijtimoiy shartlilik tamoyili (ta'limni diversifikatsiya qilish mintaqa, shahardagi ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy-tuzilmaviy vaziyat bilan bog'liq bo'lishi kerak);
- muvofiqlik tamoyili (diversifikatsiyaning mazmun-texnologik va ilmiy-uslubiy ta'minoti mavzu mohiyatiga mos kelishi kerak);
- dominantlik tamoyili (mavzuning fanlararo mazmuni tarkibiy qismlarini birlashtirgan semantik dominantni ajratib ko'rsatish);
- dialogizatsiya tamoyili (ta'lim-tarbiyaning interfaol texnologiyalari ustuvorligi, ta'lim jarayoni ishtirokchilari faolligi, mas'uliyati va refleksivligini rivojlantirish)<sup>6</sup> [14-b.].

1 A.A. Bodalev, V.A. Krutetskiy, B.F. Lomov, “Pedagogik va yosh psixologiyasi asoslari” (O'zbekiston Milliy universiteti nashr

2 Karimov S., Ortiqboyeva D. “O'quvchilarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish”, Toshkent, 2022

3 O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. “Tarbiya konsepsiyasi” asosida ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy qo'llanma

4 Tatur Yu. G. Obrazovatel'naya sistema Rossii. Visshaya shkola [Tekst]: monografiya / Yu. G. Tatur. – M.: Issled. sentr problem kachestva podgotovki specialistov: Izd-vo MGTU, 1999. – 278 c.

5 Kudrina Ye. L. Diversifikatsiya visshego professional'nogo obrazovaniya v sfere kul'turi i iskusstva: Diss.... dok. ped. nauk: 13.00.05. –M., 1999. – 353 c.

6 Sumskaya T. S. Diversifikatsiya neprerivnogo professional'nogo obrazovaniya specialistov po sosial'noy rabote v universitetskom komplekse [Tekst]: Avtoref. diss. ... dok. ped. nauk: 13.00.08 / T. S. Sumskaya; Ros. gos. sosial, un-t. – M., 2007. – 43 c.

O'quv fanlarining diversifikatsiyasi shaxs va jamiyatning turli xil faoliyat turlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijtimoiy harakatchanligini oshirish, me'yoriy ko'nikmalarni takomillashtirish imkonini beradi.

Ye. L. Kudrina, T. S. Sumskeya kabi tadqiqotchilar o'quv fanlari va ta'lim dasturlarini diversifikatsiya qilishga oid ma'lum talablarni qo'yadilar. Xususan:

- fundamentallashtirish (pedagogik ta'limning ilmiy-bazaviy komponentlarini shakllantirish va mustahkamlashni ta'minlaydi);
- uzluksizlik va integratsiya (ilgari olingan bilim, ko'nikma va malakalarni hisobga olgan holda fanlararo uzluksizlikning asta-sekin murakkablashishi);
- yakunlanganlik va to'liqlik (avvalgisini o'zlashtirgandan so'ng ta'lim dasturining yangi darajasini o'zlashtirish);
- mavjudlik (talabalar tomonidan ta'lim dasturi va fanlarni shaxsning ehtiyojlari, imkoniyatlari va qobiliyatiga qarab tanlash)<sup>7</sup> [214-b.].

Tadqiqotimizda Ye. L. Kudrina tomonidan berilgan "ta'limni diversifikatsiya qilish" ta'rifining talqiniga tayangan holda o'quvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirish kontekstida "Tarbiya" fani vazifalarini kengaytirish (rivojlantirish, o'quv intizomini diversifikatsiya qilish) kabi diversifikatsiya ko'rinishiga murojaat qilishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

V. A. Slastenin ta'limda gumanitar fanlarning mazmuni integratsiyaga asoslanishi kerakligini ta'kidlaydi<sup>8</sup> [198- b.]. Biz tadqiqotimizda integratsiyaning quyidagi ta'rifiga tayanamiz: "... (lot. integratio – "to'ldirish, tiklash") – birlashtirish, kattalashtirish, ajralmas qism sifatida bir butunga kiritish"<sup>9</sup> [38-b.].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Integratsiya obyektlari tomonidan huquqiy kompetentlik mantig'idan kelib chiqib, huquqiy ta'lim tushunchasi, huquqiy bilim va malakalar tizimini belgilab oldik. Bu "Tarbiya" fani mazmuni va fanga oid tayanch kompetensiyalarning izchillik va uzluksizlikning didaktik tamoyillariga asoslangan huquqiy xususiyatga ega bo'lgan muayyan mavzularni kiritishni taqozo etdi. Mazkur jihat esa bilim mavzusini kengaytirish va chuqurlashtirish, uquvchilarning huquqiy bilimlarini tizimlashtirish va ixchamlashtirishni talab qiladi.

Mazkur tuzilmada 7-sinf o'quvchilarida huquqiy kompetentlikni rivojlantirishni o'zida aks ettiruvchi sohaga oid integral huquqiy bilim, ko'nikma va qobiliyatning o'zaro aloqadorligini ta'minlash orqali huquqiy kompetentlikning tizimli takomillashib borishi tavsiflandi.

**2-jadval: 7-sinf "Tarbiya" fani mavzulari doirasida huquqiy kompetentlikni rivojlantirish xususiyatga ega bo'lgan taqvimi**

| Dars mavzusi                                    | Asosiy tushuncha / kompetentlik                                 | Tarbiyaviy yo'nalish / ilmiy tahlil  |
|---|---|--|
| <b>Inson – ezigulik ijodkori</b>                | Insonning huquqiy daxlsizligi, qadr-qimmatni hurmat qilish      | Har bir shaxsning daxlsizligi, qadr-qimmat va inson huquqlariga hurmat jamiyatdagi axloqiy hamda huquqiy me'yorlarning asosiy poydevori hisoblanadi. |
| <b>Oliy maqsadlar bilan yashash</b>             | Fuqarolik burchi, huquq va majburiyatlar o'rtasidagi bog'liqlik | Fuqarolik burchi va huquqlarni anglash orqali yoshlarni mas'uliyatli, jamiyatga foydali fuqarolar sifatida tarbiyalash.                              |
| <b>Muvaffaqiyat – qunt va qat'iyat natijasi</b> | Huquqiy faollik, mehnat huquqi                                  | Mehnat huquqini anglash va huquqiy faollikni targ'ib qilish yoshlarni o'z huquqlarini himoya qilishga o'rgatadi.                                     |
| <b>Umr – umid – sinov – imkoniyat</b>           | Hayot uchun mas'uliyat, inson huquqlarining kafolati            | Inson huquqlari va mas'uliyatli jamiyatni shakllantirish orqali hayotga ijobiy qarashni rivojlantirish.  |
| <b>Tabiatni asrash – hayotni asrash</b>         | Ekologik huquqlar, atrof-muhitni muhofaza qilish majburiyati    | Ekologik huquqlarni anglash va atrof-muhitni himoya qilishga mas'uliyat hissini yosh avlod ongiga singdirish.  |

7 Kudrina Ye. L. Diversifikatsiya visshego professional'nogo obrazovaniya v sfere kul'turi i iskusstva: Diss.... dok. ped. nauk: 13.00.05. –M., 1999. – 353 c

8 Slastenin V. A., Belozerev Ye. P. [i dr.] Pedagogika professional'nogo obrazovaniya: ucheb. posobie dlya studentov vissh. ped. ucheb. zavedeniy. – M.: Akademiya, 2004. [elektronniy resurs]

9 Lopatin V. V., Lopatina L. Ye. Tolkoviy slovar' sovremennogo russkogo yazika. – M.: Eksmo, 2009. – 921 c



|   |  |  |
|---|--|--|
| <b>Inson axloqi bilan go'zal</b>                        | Axloqiy va huquqiy me'yorlar uyg'unligi                                | Axloq va huquq me'yorlarini uyg'unlashtirish orqali yoshlarda huquqiy ongini shakllantirish.                                 |
| <b>Inson odobida aks etuvchi fe'l-atvor</b>             | Jamoat joylarida o'zini tutish qoidalari, huquqbuzarlikdan saqlanish   | Jamoat joylarida odob va huquqni hurmat qilishni o'rgatish, huquqbuzarlikdan saqlanishga qaratilgan tarbiya.                 |
| <b>Insonlarni birlashtiruvchi umuminsoniy xislatlar</b> | Inson huquqlari umumjahon konsepsiyasi                                 | Umuminsoniy qadriyatlar asosida yoshlarni millatlararo bag'rikenglik, tenglik va hurmat ruhida tarbiyalash.                  |
| <b>Baxtiyor hayotning ustunlari</b>                     | Qonuniylik, tinchlik, fuqarolik burchi                                 | Fuqarolik burchi va qonuniylikni anglash orqali jamiyatda tinchlikni saqlashga qaratilgan huquqiy faoliyatni rivojlantirish. |
| <b>Hammasi o'z qo'limizda</b>                           | Huquqiy faollik, o'z huquqlarini anglash                               | Yoshlarni huquqiy faollikka jalb qilish, o'z huquqlarini himoya qilishga o'rgatish.  |
| <b>Inson umri</b>                                       | Hayot huquqi, shaxsiy daxlsizlik                                       | Inson hayotining daxlsizligi, o'zini hurmat qilish va huquqiy himoya haqida tushuncha berish.                                |
| <b>Ogohlik</b>  | Huquqbuzarlik, ma'muriy javobgarlik                                    | Huquqbuzarlikning oldini olish, ogohlik va javobgarlikni tarbiyalash orqali huquqiy madaniyatni shakllantirish.              |
| <b>Ko'zga ko'rinmas xatarlar</b>                        | Internetda xavfsizlik, bolalarni himoya qilish huquqi                  | Internet xavfsizligi, bolalar huquqlarini himoya qilish va onlayn muhitda huquqiy ogohlikni oshirish.                        |
| <b>Men qanday odamman?</b>                              | O'z shaxsiy huquqlarini anglash, mas'uliyat hissi                      | O'z huquqlarini anglash, mas'uliyatni his qilish va ijtimoiy faollikni rivojlantirish.                                       |
| <b>Muomala uchun zarur odoblar</b>                      | Muomalada huquq va axloq me'yorlari                                    | Jamiyatda o'zini tutish, huquqiy va axloqiy me'yorlarni hurmat qilishni o'rgatish.   |
| <b>Kommunikativlik – muvaffaqiyat kaliti</b>            | Boshqa insonlarni hurmat qilish, so'z erkinligi                        | To'g'ri muloqot madaniyati, huquqiy va axloqiy chegaralarni tushunish hamda hurmat qilishni tarbiyalash.                     |
| <b>Samarali muloqot sirlari</b>                         | Muloqot madaniyati, huquqiy munosabatlarda madaniyat                   | Muloqot madaniyatini rivojlantirish, huquqiy munosabatlarda to'g'ri va hurmatli muloqotni o'rgatish.                         |
| <b>Farzand – oila ko'zgusi</b>                          | Oilaviy huquqlar, bolalarning oiladagi huquqlari                       | Oilaviy huquqlar va bolalarning huquqlarini anglash, oilaviy munosabatlarda huquqiy ongini shakllantirish.                   |
| <b>Avval tinglashni o'rganing</b>                       | Boshqalar fikriga hurmat, so'z erkinligi va uni to'g'ri qo'llash       | So'z erkinligini hurmat qilish, boshqalar fikriga e'tibor berish va muloqot madaniyatini rivojlantirish.                     |
| <b>Harakat qilmagan baxtga yetolmas</b>                 | Faol fuqarolik pozitsiyasi, mehnat huquqi                              | Faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish, mehnat huquqlarini anglash va jamiyatdagi huquqiy ishtirokni oshirish.          |
| <b>Yaxshilik yo'lida hamkorlik</b>                      | Jamoa faoliyatida qonunga amal qilish, tenglik                         | Jamiyatda qonunlarga hurmat bilan qarash, hamkorlikda ishlash va tenglikni qadrlashni yoshlar orasida shakllantirish.        |
| <b>Do'stlik</b>   | Dushmanlik va zo'ravonlikka qarshi huquqiy immunitet                   | Do'stlik, tinchlik va zo'ravonlikka qarshi turishga oid huquqiy immunitetni shakllantirish.                                  |
| <b>Insoniylik – xalqimizning eng buyuk fazilati</b>     | Inson huquqlari, adolat, bag'rikenglik                                 | Inson huquqlarini hurmat qilish, adolat va bag'rikenglikni o'rganish orqali yoshlarni ezgulikka targ'ib qilish.              |
| <b>Bag'rikenglik – tinchlik sari muhim qadam</b>        | Madaniy huquqlar, diniy va millatlararo bag'rikenglik                  | Madaniy huquqlarni hamda diniy va millatlararo bag'rikenglikni rivojlantirish orqali ijtimoiy tinchlikka hissa qo'shish.     |
| <b>Daxldorlik</b>                                       | Jamiyat ishlariga aralashish huquqi, fuqarolik faolligi                | Fuqarolik faolligini oshirish, jamiyat ishlariga aralashish huquqini anglash va rivojlantirish.                              |
| <b>Mahallamiz farovonligi – bizning farovonligimiz</b>  | Hududiy o'zini o'zi boshqarishda ishtirok etish huquqi (mahallachilik) | Mahallada o'zini o'zi boshqarish huquqini tushuntirish, jamoat hayotida faol ishtirok etishni rag'batlantirish.              |

## TAHLIL VA NATIJALAR

Huquqiy kompetentlikning dinamik tushunchasi inson faoliyati va uning shaxsiy rivojlanish jarayonida doimiy ravishda o'zgarib, takomillashib boradigan jarayon sifatida qaraladi. Mazkur yondashuvga ko'ra, shaxs muayyan bosqichlarda huquqiy bilimlar, qarashlar hamda ko'nikmalarni shakllantirib, har bir bosqichda yangi huquqiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Tarbiya fanlari doirasida mazkur jarayonni nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganish, yoshga mos ravishda huquqiy ongni tarbiyalash hamda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy kompetentlikning universal tuzilmasi, ya'ni barcha shaxslar uchun umumiy va zarur bo'lgan huquqiy bilimlar, axloqiy me'yorlar hamda fuqarolik mas'uliyati kabi tarkibiy qismlar insonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida asosiy o'rin tutadi.

Shuningdek, tarbiya jarayonida huquqiy kompetentlikni bosqichma-bosqich shakllantirishni talab qiladi. Bunday yondashuv yosh bolalarda huquq va majburiyatlar haqidagi oddiy tushunchalarni shakllantirishdan boshlab, o'smirlik davrida huquqiy fikrlashni rivojlantirish, yoshlik davrida esa fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonni to'g'ri tashkil etish natijasida tarbiya ta'sirida huquqiy bilimlar nafaqat nazariy bilimlar darajasida, balki amaliy kompetentlik sifatida ham namoyon bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish maqsadida ilmiy asoslangan bir qator vazifalarni amalga oshirish zarur hisoblanadi. Jumladan, o'quvchilarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy asosda o'rganish, ta'lim strategiyalarini uzluksiz shakllantirish doirasida ta'lim texnologiyalari, shakllari va usullarini bosqichma-bosqich murakkablashtirish hamda pragmatizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, ta'lim mazmuniga huquqiy yo'naltirilgan interfaol topshiriqlarni kiritish, hayotiy huquqiy vaziyatlar asosida o'qitishni tashkil etish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish hamda o'quvchilarning faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish huquqiy kompetentlikni rivojlantirishning muhim pedagogik shart-sharoitlari sifatida namoyon bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. A. Bodalev, V. A. Krutetskiy, B. F. Lomov. Pedagogik va yosh psixologiyasi asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashri.
2. Karimov S., Ortiqboyeva D. O'quvchilarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish. – Toshkent, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "Tarbiya konsepsiyasi" asosida ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy qo'llanma.
4. Татур Ю. Г. Образовательная система России. Высшая школа [Текст]: монография / Ю. Г. Татур. – М.: Исслед. центр проблем качества подготовки специалистов: Изд-во МГТУ, 1999. – 278 с.
5. Кудрина Е. Л. Диверсификация высшего профессионального образования в сфере культуры и искусства: дисс. ... док. пед. наук: 13.00.05. – М., 1999. – 353 с.
6. Сумская Т. С. Диверсификация непрерывного профессионального образования специалистов по социальной работе в университетском комплексе [Текст]: автореф. дисс. ... док. пед. наук: 13.00.08 / Т. С. Сумская; Рос. гос. социал. ун-т. – М., 2007. – 43 с.
7. Кудрина Е. Л. Диверсификация высшего профессионального образования в сфере культуры и искусства: дисс. ... док. пед. наук: 13.00.05. – М., 1999. – 353 с.
8. Сластенин В. А., Белозерцев Е. П. [и др.]. Педагогика профессионального образования: учеб. пособие для студентов высш. пед. учеб. заведений. – М.: Академия, 2004. [электронный ресурс].
9. Лопатин В. В., Лопатина Л. Е. Толковый словарь современного русского языка. – М.: Эксмо, 2009. – 921 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.